



O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA QO‘LLANGAN METAFORALAR TAHLILI

M. Mustafaqulova,
Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti, 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Nutqimizning ta’sirchanligi, ifodaviyligini ta’minlovchi unsurlardan biri bu ko‘chma ma’noli so‘zlardir. Badiiy asarlarda ham ko‘chma ma’noli so‘zlardan keng foydalaniladi. Maqolada ma’no ko‘chishining metafora turi, uning turlari va badiiy asardagi o‘rni hamda mohiyati yuzasidan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: polisemiya hodisasi, leksimaning semantik tarkibi, leksik ma’no, ko‘chma ma’no, metafora, shakliy o‘xshashlik, belgi o‘xshashligi, harakat o‘xshashligi.

Tilimizda mavjud bo‘lgan leksimalarning deyarli yarmi polisemantik hisoblanadi. Polisemiya hodisasi (yun. poly-ko‘p + sema-belgi) – ko‘p qirrali va murakkab hodisa. Masalan, **tuz** leksimasining semantik tarkibida quyidagi leksik ma’nolar bor: 1) ”kislota tarkibidagi vodorod o‘rnini biror metall egallashi natijasida hosil bo‘ladigan kimyoviy birikmalar”; 2) “kimyoviy birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi” (osh tuzi); 3) ko‘chma: “kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan ovqati” (tuz bergan, tuzini yemoq); 4) ko‘chma: mantiq, ma’no, mazmun “Iye-iye, bu oyimchaning gapida tuz bormi o‘zi?” (I.Rahim)

Leksik polisemiya, odatda, bir leksimaning semantik tarkibidagi leksik ma’nolar orasida mazmuniy bog‘lanish borligiga tayanadi, shu xususiyati bilan leksik omonimiyadan farq qiladi¹.

Leksik ma’no, odatda, bu predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi harakatga ko‘chirish yo‘li bilan rivojlanadi. Ko‘chirishlar, asosan, quyidagilar: metafora yo‘li bilan ko‘chirish, funksional ko‘chirish, metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish, sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish.

¹ Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон, 1992. Б.81.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Maqoladan ko‘zlangan muddaoga keladigan bo‘sak, ma’no ko‘chishining metafora turi haqida chuqurroq fikr yuritamiz.

Metafora (yun. metaphora-ko‘chirish) bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o‘xshashligini e’tiborga olib ko‘chirish. Metafora so‘zning yangi ma’nolari hosil bo‘lishida qatnashadigan omillardan biridir². Masalan, **yo‘l** leksimasi asli “o‘tish joyi” ma’nosini anglatadi. Shakliy o‘xshashlik asosida bu leksima **“satr”** (“bir chiziq bo‘ylab joylashtirilgan yozuv”) ma’nosini ham anglati boshlagan.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari:

1. Bir narsaning nomi bilan boshqa bir narsaga shakliy o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi: **etak** (kiyimning etagi)-**etak** (tog‘ning etagi).
2. Bir narsaga (ba’zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko‘chiriladi: **jonli** (tabiat)-**jonli** (suhbat) yoki **tez** (yurmoq)-**tez** (odam) kabi.
3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko‘chiriladi: **o‘lmoq** (jonlilarda hayotning tugashi)-**o‘lmoq** (o‘simlik palagining so‘lishi, qurishi).

Ma’no ko‘chirishning metafora turi tilimizda ko‘p uchraydi. Badiiy asar tilining jozibadorligi va xilma-xilligini taminlovchi unsurlardan biri ham aynan metaforadir. O‘tkir Hoshimov ijodining rang-barangligini ham adibning o‘z asarlarida qo‘llagan ko‘chimlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Quyida “O‘zbeklar”, “Yanga”, “Uch xil odam”, “Baxt” va “Umr savdosi” hikoyalarida qo‘llanilgan metaforalarni ma’no ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari asosida tahlili bilan tanishamiz.

Shakliy o‘xshashlik asosida hosil qilingan metaforalar:

Bir-birlariga yulduzlari to‘g‘ri kelib qoldimi, yo Muniraning o‘zi ko‘nikdimi, xullas, “shofyor yigit” unga tinchlik bermadi. Uyidan chiqsa, **ko‘cha boshida** kutadi (“Baxt”, 106-bet). Ushbu gapda hosil qilingan metafora “bosh” so‘zi orqali hosil qilingan bo‘lib, bu so‘z, aslida, “inson tana a‘zosi” ma’nosini ifodalashi barchamizga ma’lum. Ammo yuqorida aytganimizdek, metafora natijasida so‘zning yangi ma’nosi hosil bo‘lgan.

²Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.63.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Butun mehrini ishga berdi. G'ayrati, halol mehnati bilan obro' topdi. Faqat **ko'nglining bir chekkasi** bo'm-bo'sh ("Baxt", 108-bet). Bilamizki, ko'ngil o'zi mavhum tushuncha, shunday ekan uning bir chekkasi bo'lishi ham ko'chma ma'noli so'zdir. Yozuvchi asar qahramoni umri davomida mehnati orqali ko'p narsaga erishgan bo'lsa-da, ko'nglining qayeridadir armoni, bir kemtigi borligini ta'kidlash uchun bu metaforadan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

Yuragining tub-tubidan otilib chiqqan bu savol a'zoyi badanini o'rta yubordi ("O'zbeklar", 69-bet). Yuqoridagi metafora kabi bu ham mavhum leksima orqali hosil qilingan.

Tandir yonida o'ralashib yurgan Iskandarga eng avval pishgan **nonni yuziga** suv sepib berardi ("O'zbeklar", 69-bet).

Otinoyining hovlisi past **ko'chaning etagida** ("O'zbeklar", 62-bet).

Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor ("O'zbeklar", 62-bet).

Yangasi **hovli etagidagi** oshxona eshigi oldida cho'nqayib o'tirgancha o'tin yorardi ("Yanga", 89-bet). Etak so'zi orqali hosil qilingan ko'chaning etagi, hovli etagi metaforalari ko'chaning va hovlining past ma'nosini ifodalash maqsadida ko'ylakning etagiga nisbat berilgan holda hosil qilingan.

Belgi o'xshashligi asosida hosil qilingan metaforalar:

Sal g'iybatchiroq-ku, ammo yaxshi xotin, **ko'ngli bo'sh** ("O'zbeklar", 63-bet). Ko'ngilni ushlab ko'rolmaganimizdek, uning bo'sh yoki qattiq ekanligi haqida ham xulosa berolmaymiz, albatta. Adib badiiy asar tili talabi bilan o'z qahramoning yumshoq tabiatli, ko'ngilchan ekanlini ifodalash maqsadida yuqoridagi metaforadan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

Nima qildi u? Nima qilib qo'ydi? **Shirin gaplariga** uchdimi? ("Umr savdosi", 123-bet).

Unga **shirin muomala** qilishsa, ko'ngli yarimligi uchun yetim boladek yupatishayotganga o'xshaydi ("Baxt", 108-bet).

Munira endi bilsa, o'sha kunlar hayotining eng **shirin damlari** ekan. Kimningdir intiqlik bilan senga talpinib turganini his etishdan kattaroq baxt yo'q ekan ("Baxt", 106-bet). Shirin sifati ma'lum bir ta'tib ko'rish yoki hidlash imkoni mavjud bo'lgan narsa-buyumlarga nisbatan qo'llanilib kelingan bo'lsa, metafora orqali so'zning



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

yangi – “kishiga yoqadigan, jozibador, yoqimli so‘z” va “xotirada butun umr qoladigan, unitilmas payt, vaqt” ma’nolarini hosil qilingan.

Xurshida, ayniqsa, sovchilar kelganida buni **chuqur his qilari edi** (“Umr savdosi”, 113-bet). “Chuqur his qilmoq” – real hayotda his qilishning darajasi chuqur yoki sayoz bo‘lmaydi, biroq nutqimizda ilgari e’tibor berilmagan, nazarga olinmagan biror narsa-voqeaning asl mohiyatini anglab yetish bilan bog‘liq harakatni ifodalashda bu metaforadan foydalanamiz.

Harakat o‘xshashligi asosida ko‘chirilgan metaforalar:

Munira mana shu qizaloqqa – Nilufarga **bog‘lanib qoldi** (“Baxt”, 109-bet). “Bog‘lanmoq” fe’li “biror narsaga ip yoki arqon yordamida bo‘g‘lanish” ma’nosini ifodalaydi, ammo ma’no ko‘chirish orqali bu so‘zning “biror kishi yoki buyumga o‘rganib qolish, vaqtini u bilan o‘tkazishni xohlash” ma’nosi hosil bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Asarda ham qahramonning yolg‘iz ovunchog‘i shu - singlisining qizi Nilufar ekanligini ko‘rsatish uchun foydalanilgan.

Uch soatdan keyin Munira o‘ttizga **qadam qo‘yadi** (“Baxt”, 103-bet). Ushbu gapda ma’no ko‘chirishining ikki turi – metafora va metonimiyani ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi “o‘ttizga” so‘zi orqali metonimiya (o‘ttiz yosh) va “qadam qo‘ymoq” fe’li orqali metaforani hosil qilmoqda.

Biqinida chidab bo‘lmas og‘riq **uyg‘onib**, hamma yoqni zulmat qopladi-da, gursullab yerga yiqildi... (“Uch xil odam”, 102-bet). Uyg‘onish aslida tirik, uxlayotgan jonzotlarga xos, ammo asarda to‘satdan paydo bo‘lib qolgan og‘riqni ifodalash maqsadida ma’no ko‘chirilgan. E’tibor bersak, yozuvchi bu hodisani “og‘riq paydo bo‘lib” tarzida ifodalashi ham mumkin edi, ammo bunday tarzda qo‘llanganda fikrning bo‘yoqdorlik darajasi ancha oddiy bo‘lib qolishi mumkin edi. Xurshida gap **suyuqlashib ketayotganligidan** g‘ashi keldi-yu, ammo shunga yaqinroq mavzu davom etishini baribir xohlardi (“Umr savdosi”, 117-bet).

Muhabbati evaziga baxt quyoshi unga **jilmayib boqdi-yu**, butun dunyo yashnab ketgandek bo‘ldi (“Umr savdosi”, 119-bet).

Sutday to‘lin oy pastak uy ro‘parasidagi olchalarning sarg‘aya boshlagan yaproqlarini **allalar**, mayin shabada esib turardi (“Yanga”, 88-bet).

Bitta irmoq to‘xtab qolgani bilan daryo suvi qurimaydi. Hayot o‘z yo‘lidan **ketaverdi** (“Baxt”, 106-bet).



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Shunaqa paytlarda Munira o‘zining ham baxti ochilishi, go‘dak isidan mast bo‘lishini tasavvur qilib, entikib ketadi (“Baxt”, 109-bet).

O‘tkir Hoshimov hikoyalari metaforadan unumli va mahorat bilan foydalangan. Shu sababli ham, adib asarlarining tili go‘zal, ta’sirchan va ekspressivdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 275 b.
2. Турсунов У. ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.
3. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 164 б.
4. O‘tkir Hoshimov. Hurkitilgan tush. – Toshkent: Ziya nashr, 2020.